



“KO‘HNA DUNYO” ROMANIDA TARIXIY VOQELIK VA RUHIYAT TASVIRI SINTEZI

Shoira Isayeva,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15206880>

Annotatsiya: Ushbu maqolada atoqli adib O.Yoqubovning tarixiy romanlaridagi xarakterlar ruhiyati tasviri masalasi yoritilar ekan, avvalo, ulkan ajdodlarimiz hayoti va faoliyati ularning ruhiyatida kechgan muqaddas to‘yg‘ularing adib ijodida, aynan tarixiy romanlarida ruhiyat tasvirining qanday usullari qo‘llangan ekanligini aniqlash va hozirgi o‘zbek nasrida psixologik tasvir masalalarida yozuvchining tutgan o‘rnini belgilab berish orqali adabiyotshunoslik ilmiga yangi ko‘zlatishlar olib kiradi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek romani, ruhiyat, badiiy tasvir, epik voqelik, xarakterlar, jarayon, epik, lirik va dramatik tasvir, psixologizm, ziddiyatlar, tarixiylik va zamonaviylik.

XX asrning so‘nggi choragi o‘zbek romani real voqelikni butun murakkabligi bilan qamrab olish va uni o‘z tarovatida, o‘z yo‘nalishi va ziddiyatlarida aks ettirishi bilan xarakterini o‘zgartirdi. Eng muhimi, unda epik voqelik tasviri bilan xarakterlar ruhiyati tasviri sintezlashdi. Epik rivo‘yatda ruhiyat tasvirining kuchayishi, boshqacha aytganda, voqelikning xarakterlar ruhiyatni tarixiy tasviri orqali aks ettirilishi hozirgi o‘zbek romanchiligida psixologizmning rivojlanganligidan dalolat beradi. Bu jarayon epik, lirik va dramatik tasvir usullarining tabiiy, betakror uyg‘unlashib kelishi xarakterlar ruhiyatini yanada chuqurroq, yanada asosliroq va ishonchliroq ochib berishning usul va vositalari boyiganligi tufayli amalga oshdi. O‘zbek romani tabiatidagi bunday sifat o‘zgarishlari esa janrning tobora hayotiy polifoniyaga yaqinlashib borayotganligini anglatadi. O‘zbek romanchiligida xarakterlar ruhiyatini chuqur va har tomonlama yoritishda Odil Yoqubovning ulushi salmoqli. U Abdulla Qodiriy, O‘ybek, Abdulhamid Cho‘lponlar boshlab bergan mumtoz realistik romanchiligimizdan psixologik tasvir tamo‘yilini ham zamonaviy, ham tarixiy mavzulardagi romanlaridan bir necha pogona yuqoriga ko‘tardi.

L.Ginzburg haqida ravishda ta’kidlanganligi psixologik roman yoki romandagi psixologim tasodifiylik zaruriyati eng oliy darajadagi uyg‘unlashishni talab etadi.

Odil Yoqubov “Ko‘hna dunyo” romanida ana shu uyg‘unlikni ta’minlashga erishdi, har qanday tasodifiylik hamda zaruriylikni ruhiyat tasvirida bugungi kitobxonni ishontira oldi. Birinchi usulga ko‘ra u asardagi u yoki bu xarakterga muallif nutq kezarkan, yana tasvirlanayotgan vaziyat va holatdan kelib chiqqan xolda

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



muallif tasviri orqali xarakterga tavsif berishga intiladi. Biroq bu usul O.Yoqubovni romanlari uchun u qadar xos emas. Shu bois u “Ko‘hna dunyo” asarida kam uchraydi.

Ikkinchi usulga ko‘ra, adib xarakterlar faoliyati va ruhiyatiga roman personajlari nigohi bilan yondashib, ularning mezonlari orqali baholaydi. O.Yoqubov romanlarida asardagi xarakterlarga boshqa xarakterlar tomonidan baho berish, aniqroq qilib aytganda, u yoki bu xarakter ruhiyatiga o‘zga personajlar ruhiyati orqali nigoh tashlash mukammal ishlangan badiiy usul kabi ko‘rsatilgan. Bu usul esa asardagi har bir personaj ruhiyatini ishonarli, muhimi esa o‘quvchi uchun qiziqarli bir tarzda obyektiv baholashga imkon beradi.

“Ko‘hna dunyo” romanidagi xarakterlar ruhiyati tasviri tahliliga kirishishan oldin yana bir masalaga qisqacha to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlarda ruhiyat tasviri borasida rang-barang konseptlar ilgari suriladi. Masalan, rus psixologik maktabining yirik namo‘yondasi D.N.Ovsyanikov-Kulikovskiy ijodkorlarning xarakterlar tasvirida ruhni, quvvat sarflariga to‘xtalib, ularni ikki guruhga ajratgan edi. Bular: obyektiv hamda sub`ektiv ijodkorlardan iborat. Uning fikricha, ob`yektiv ijodkorlar o‘zlari yaratgan eng yaxshi xarakterlar ruhiyatini ochishda bevosita ularning o‘zlariga xos bo‘lgan, tasvirlanayotgan voqealar mantiqidan kelib chiqqan, hollarda ulardagi ruhiyat o‘zlarining ruhiy xususiyatlariga aniq bo‘lsa ham, obektiv tasvirlashga intiladilar. Buning yorqin misoli I.S.Turgenevdir. Obyektiv ijodkorlar xarakterlar ruhiyati tasvirida o‘zlaridan ruhiy kuch sarflamaydilar.

Ma’lumki, tarixiy roman yozishning o‘ziga xos murakkab tomonlari bor. Ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi jahonga ma’lum va mashhur olimlar hayoti, faoliyatini yoritish ijodkordan katta mas’uliyat, ular yashagan tarixiy-siyosiy muhit va umumiy tarzda bo‘lsa ham, ana shu olimlar yaratgan ilmiy asarlar haqida to‘g‘ri tasavvur talab etadi. “Ko‘hna dunyo” romanida O.Yoqubov ana shunday ogir hamda murakkab ishga qo‘l uradi va uning uddasidan chiqdi. Romanining yaratilishida bu adib oldida turgan eng og‘ir vazifalardan biridir.

X asrning oxiri va XI asrning 30-yillarigacha Xurosonda hukmronlik qilgan mustabid sulton Mahmud G‘aznaviy davrida yashab ijod qilgan O‘rta Osiyolik ikki ulkan olim hayoti va faoliyati, ularning boshlaridan kechirgan og‘ir mashaqqatli xayotlari, ana shu hayot ta’sirida ularning ham qubvonchi, ham og‘ir ruhiy ixtiroflarga to‘la kechinmalarini tarixiy va badiiy haqiqatlarga xilof kelmaydigan tarzda ishonarli tasvirlashdan iborat edi. Bir tomondan, o‘z davrida boshqa davlatlar va xalqlarga tahlika solib turgan dahshatli, undagi iqtisodiy-siyosiy va madaniy muhit, ana shu muhitda kun kechirayotgan Beruniy, mustabid sultondan qochib,

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



azob-uqubatda kun kechirgan Ibn Sino, shuningdek Mahmud G‘aznaviy xarakterlarini ruhiy murakkabligi bilan tasvirlashda adib yetakchi tarixiy konsepsiyani tutib turgan holda erkin badiiy syujet yaratish yo‘lidan boradi. Shu sababli romandan aniq biografik fakt hamda ma’lumotni talab etib bo‘lmaydi. Erkin badiiy to‘qimaga asoslangan syujet chizigidan esa sof tarixiy tafsiliy voqelikni ham, sof tarixiy-biografik fakt bilan badiiy-ruhiy faktni bir narsa qilib bo‘lmaydi;

Ikkinchi tomondan, ikki buyuk alloma hayoti va faoliyatining bir roman doirasida badiiy umumlashtirish va to‘la aks ettirish mumkin emas. Shuning uchun ham romanda Mahmud G‘aznaviy hayotining so‘nggi yili voqealari tayanch xrontop sifatida tasvirlangan. Sultonning bir umr Ibn Sinoni ta‘qib etishi, o‘jar va magrur olimning uning ta‘qibidan qochib, yashirinib yurishi kabi tarixiy fakt asarda sultonning ogir xastalikka chalinishi, bu darddan faqat Ibn Sinogina xalos qila olishi, shu sababli uni tutib kelishga intilish tarixi berilganini, bu narsa Mahmud G‘aznaviy va Ibn Sino o‘rtasidagi konfliktning xayotiyliigi, ishonarliligi, ayni paytda drammatizmga bo‘yiliginilni ta‘minlaydi.

Uchinchi tomondan, romandagi barcha xarakterlar bir-birlaridan keskin farkanib turuvchi shaxslar sifatida tasvirlanadi. Chunki, Sulton bilan Beruniy o‘rtasidagi kolliziyali, sulton bilan ibn Sino o‘rtasidagi oshkora ziddiyat roman voqealari dinamikasi uchun to‘la yetarli edi. Biroq ana shu konfliktning yechimini ta‘minlash, bu yechimning hayotiyiliginilni asoslash maqsadida asapra Malikul Sharob. Piri Bukriy, Abu Shilkim ibn Shaxvoniy, Ali G‘arib konfliktning serqirraliginilni, uning bir nechta xarakterlar orasidagi ziddiyatlar bilan bog‘liq xolda markazlashganligilni sababli roman kompozitsiyasi biroz tarqoqdek tuyuladi. Ammo asar qayta-qayta o‘qilsa, undagi xarakterlararo turli bo‘yoqlar, turli-tuman ruhiy tasvir usullari orqali ifodalanganligilni anglab olish qiyin emas. Xarakterlar ruhiyatini o‘zaro muayyan ziddiyatlarda qiyoslash, ya‘ni obrazlar parallelizmi yordamida ular o‘rtasidagi kurashlarnilni tasvirlash yo‘lidan borgan adib Beruniy va Mahmud G‘aznaviy o‘rtasidagi chigal munosabatlarnilni aniq ishonarli ochishga keng o‘rnilni beradi. Tabiiyki, bunday tasvirda Beruniy xakteri yetakchi o‘rin tutadi va asar voqealari, ko‘pgina personajlarining nigohi orqali baholanadi. Beruniy esa olim, u har bir voqea yoki shaxsni o‘zining o‘y-kechinmasi orqali, ruhiy tahlili orqali baholaydi. Shu bois romanning birinchi bobidanoq adib o‘zining ruhiyat tasvirida sevimli usul darajasiga ko‘tarilgan eslash usuliga murojaat etadi. Ayni shu usul asa Beruniy xakteriga xos yetakchi xususiyatdir. Chunki u olim sifatida nafaqat ilmiy muammolarnilni, balki o‘zining o‘tmishi, har bir bosgan qadami va o‘zi bilgan, tanigan, muloqotda bo‘lgan

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



shaxslarni o‘z tahlilidan o‘tkazadi. Ayni bir paytda ruhiy jarayonning keng tarqalgan bu usuli roman personajlarini birin-ketin syujet voqealariga kirib kelishlariga ham yo‘l ochadi. Birinchi bobning o‘zida eslash usuli orqali roman voqealari rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi Pirm Bukriy, Bobo Xurmo, Abo‘lqosim Firdavsiy, Nargiza bonu, Malikul sharob kabi shaxslar hayoti, amiral mu‘minin unvoniga sazovor bo‘lgan sulton Mahmud G‘aznaviy haqida badiiy ma’lumot beriladi.

Malikul Sharob yoshligida sultonning yaqinlaridan bo‘lganligi, o‘n to‘rt yashar Nargizabonu sabab saroydan uzoqlashganligi, uning otasi amir Sabukteginning sodiq nadimi Kuglu qadamdan qolgan mayxona bilan tirikchilik qilishi, bu mayxonaga Firdavsiy, Unsuriy, Piri Rijjakiy, Piri Bukriy kabi olimu shoir, sozandayu-xonandalarning tashrif bo‘yurishi, u yerda tongotargacha o‘tadigan suhbatu- bazmlar barcha-barchasi eslatib o‘tiladi.

Asardagi yetakchi konfliktning belgilovchi tugunida sulton Mahmud Gaznaviy turadi. U Xorazmni zabt etgach, Ma‘munga taklif qilib, u yerdan yirik olimlarni, san‘at ahlini asir qilib, o‘z po‘ytaxti G‘aznaga olib keladi. Biroq u shuhrati ortgach, «amiral mo‘minin» unvonini olgach, Unsuriy kabi saro‘y malaylariga xayrixohlik ko‘rsatib, olimlar ahvolidan xabar olmay qo‘ydi. Umrining oxirida ogir dardga muhtalo bo‘lgan sulton o‘z davosi uchungina Ibn Sinoni qidirtirali, Beruniy va boshqa olimlarni saro‘yga yig‘adi.

Shuhrat va talabalarga to‘la navqiron yigitlik yillarini eslash, og‘ir xastalik tufayli tunlarni bedor o‘tkazish kishini ne-ne xotiralar girdobiga otmaydi. Sulton shunday ko‘yga tushib qolgan. Ana shunday tunlarning birida u mashvaratxonaga kirib qoladi va bugun xona bo‘ylab maglub bo‘lgan shoxlarning oltin kumushlari, toj va qurol-aslahalarini ko‘zdan kechirar ekan, q‘z saltanatining hududlarini kengaytirish uchun olib borgan jangu jadallarini, unga bosh eggan lashkarboshilarni eslaydi. Uning xotiriga Kashmir podshosi bilan bo‘lgan jang keladi. Sulton o‘zi maglub etgan shoxlarni eslab qancha gururlansa, ulkan bu davlat egasi bo‘lganda bir bedavo dard uni mana shu ko‘yga solishi qattiq alam qiladi.

Beruniyning xotirasida birdan ustoz Masihiyning saboqlaridan bahramand bo‘lganligi, Rayhonning otasi savdogar xonadonida o‘tkazgan damlari, savdogarning vafot etishi, Piri Bukriyning Rayxonga tashlanishi, Beruniyning bechora qizni qutqarib qolishi, Qiyotning Xorazmshox tomonidan bosib olinishi, ko‘p o‘tmay Urganjni tark etib Jurjon, Ray va Hamadonda darbadar kezib yurganda Rayhonning olamdan o‘tishi kabi bir-biridan ogir xotiralar uni ham qiynoqqa solar, ham orom bagishlar edi. Bir-biriga zid bunday kechinma va xotiralar Beruniy ruh jarayonlarning



ambivalentligini tasvirlashga xizmat qiladki, uchinchi - ruhiyat tasvirining eslash usuli xarakterlarning turli qirralarini ochishga imkon bergan. Xotiralar kishini o‘z girdobiga bir tortdimi, undan qutulish qiyin. Ayniqsa, bemor kishi yolgiz hujrada isitmalab yotganida xotiralar xotiralarga ulanib ketaveradi. Ularning biri xushnud etuvchi, boshqa biri esa mahzun va azobli bo‘ladi. Shu tariqa Abu Rayhon Beruniy xotiralari ham dilni munavvar etuvchi xotiraga - Ibn Sino haqidagi voqealarga ulanib ketadi. U Abu Ali Sino bilan bundan o‘n besh yil muqaddam bo‘lib o‘tgan uchrashuvni eslaydi. O‘shanda Ibn Sino Beruniyni Mahmud G‘aznaviy huzuriga borishdan qaytarib, o‘z taqdirlarini birgalikda sinab ko‘rishga da‘vat etgan edi. Biroq Beruniy biroz tinchlikda, sulton panohida ilm qilishni ko‘zlab, uning taklifiga qo‘shilmagan edi. Oxir oqibat nima bo‘lib chiqdi: o‘zi o‘ylab yurgan ilmiy ishlarning anchaginasini amalga oshirdi, lekin mustabid sulton saro‘yida baribir o‘zini o‘ta ilmga safarbar etishga erisha olmadi. Saro‘ydagi Ibn Shahvoniy, Abo‘l Hasan Unsuriy kabi fitnachi mansabdorlar va xushomadgo‘ylar har kadamda, har damla uning rejalariga xalal berishar edi. Bu esa ilm odami uchun o‘ta azobli, uta tahqirlash bilan teng edi.

Demak, xarakterning ruhiyati, kayfiyati ijtimoiy voqelik shaxsiy hayoti bilan bog‘liq xolda turli xildagi xotiralarni eslashga yetaklaydi. Ammo bu xotiralar shaxsning o‘zi kabi mubham, umidsizlik ruhi bilan almashinadi. Mana shu tabiiy holatni adib Beruniy xarakterining o‘ziga xosligini, har bir narsani, har bir qadamini obdon o‘ylab bosadigan olimona tabiatini butun murakkabligi bilan yoritishga safarbar qiladi.

Tarixiy xarakter mohiyat e‘tibori bilan muayyan tarixiy davr, tarixiy vokelik mahsuli. Uni ana shu davr, vokelik kobigida aniq va ishonarli tasvirlash tarixiy asarga xos xususiyat hisoblanadi. Tarixiy roman uchun xarakter tarixiylikni davr, vokelik bilan shartlangan holda uning ruhiy dunyosini turli-tuman holatlarda tasvirlash muhimdir. Shu bois O.Yoqubov “Ko‘hna dunyoda” har bir tarixiy xarakterni rang-barang ruhiy holatlarda, sharoitlarda tasvirlashga intiladi. Mana shu jihatdan u eslash usulidan Ibn Sino xarakterining ayrim qirralarini to‘ldirishda unumli fo‘yдалanadi. Amir Mas‘udning topshirigi bilan Ibn Sino maxsus kurikchilar nazoratida gazzaga junatiladi. Ular Hamadon yaqinidagi bir dalada chodir tikib tunaydilar. Tunda Ibn Sino chodirdan chiqib, atrofni aylanadi. Ilik tunda aylanar ekan, xuddi shunday ilik tunda Buxoro dashtlari, Afshona atroflarida xukiz Ko‘shilgan aravada onasi Sitorabonu bilan yo‘l bosishi va ular urtasida bo‘lib o‘tgan suhbat uning esiga tushadi. Chunki makon va zamondagi o‘xshashlik assotsiativ tarzda olimning bolalik

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



yillarida oi bilan bo‘lib utgan bir tunni yodiga soladi. O‘shanda Sitorabonu aqlining zehniga qo‘yil qolib, yaxshi duolar qilgandi. So‘ng suhbatlari tog‘asining katta qizi Gulruhsorga borib taqalgandi. Yosh Abu Ali ertalab sevimli Gulruhsor opasini ko‘rish ishtiyoqida yonib, entikib uxlab qolgan edi. Ammo ertalab opasini tirik ko‘rish nasib etmagandi. Ana shunda onasi yaxshi hakimlar haqida gapirgandi. Abu Alining yaxshi hakim bo‘lib yetishishi orzusi ana o‘shanda tugilgan edi.

Ko‘rinib turibdiki, adib asarning shu epizodida eslash usulini makon va zamondagi o‘xshashlikka asoslanib qo‘llagan. Hamadon yaqinidagi bu dashtning keshligi, o‘t-o‘lanlarining shakli, hidi, tunning iliq va bezorligi Ibn Sino qilida Buxoro dashtlarini qishloqlar va qadrdon Afshonani eslatadi. Bu assotsiativ holat uning zehniga onasining suhbatini, yaxshi ko‘rgan opasi Gulruhsorning o‘lim changalida chorasiz ketganligini, ana shu mash‘um tongda ilk bor eshitgan «hakim» so‘zining sehri va imkoniyati haqidagi belgilaganligini chuqur his qiladi, tasavvuri uning butun qismatini belgilab beradi.

Adib inson ruhiyatiga xos bu jarayonni tarixiy xarakterlarga xislatlarni to‘laroq yoritish, ularni tirik insonlar sifatidagi qiyofalarini jonli yaratishni ko‘zlaydi va bunga erishadi ham. Balki Ibn Sinoning olamga mashhur tabib va olim bo‘lib yetishishi butunlay boshqacha ketgandir. Lekin O.Yoqubov barcha haqiqiy hakimlarning kasb egallash jarayoni mana shunga o‘xshash bo‘lganligiga asoslanib, badiiy xayol qudrati bilan o‘z maqsadiga erishadi. Chunki, Ibn Sino xarakterining tarixiyli shundaki, u - yetuk olim, tengsiz hakim. Afshonada tavallud topgan, Buxoroda o‘qigan, Xorazmda Ma‘mun Akademiyasida ishlagan, Xorazm Mahmud G‘aznaviy tomonidan bosib olingach, uning xizmatidan bosh tortib, Eronu Afgoniston sarhadlarida kochib yurib, o‘zining mashxur asarlarini yozgan. Olim hayotiga xos ana shu narsalarni solnomachilarga o‘xshab kuruk qayd etish badiiy asar tabiatiga mos. Shu bois adib tarixiy xarakterlar hayoti va faoliyatiga xos asosiy obrazlarning badiiyli xarakter ruhiy dunyosini yoritish orqali ta‘minlanadi. Shu bois adib tarixiy xarakterlar hayoti va faolyatiga xos asosiy yo‘nalishdan chekinmagan holda uning badiiy qiyofasini to‘laroq bilishga harakat qiladi. Avvalo Ibn Sino, Beruniy kabi tarixiy shaxslar ruhiyatini berishga yordam beruvchi aniq ma‘lumotlar yo‘q. Shuning uchun adib xarakterlarning mohiyati, faoliyati va tarixiy ma‘lumotlardan fo‘y dalanib, ruhiyat tasvirida erkin, ammo badiiy mantiq talablari asosida ish ko‘radi. Badiiy ijodda tarixiy xarakterlar ruhiyatini tasvirlashning eng sinalgan yo‘li shundan iborat.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiy turlar va janrlar (uch jildli), 1-jild (epos), -T.: Fan, 1991. –
2. Aristotel. Poetika, -T.: Adabiyot va san’at, 1980. -151b.
3. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. М.: Художественная литература, 1972. -237 s.

